

## QISQA MUDDATLI GURUHLARDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA YARATUVCHANLIK O'YINLARIDAN FOYDALANISH TEXNALOGIYASI

**Ismoilova Roziya Safarali qizi**

Termiz Pedagogika Instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich 21/16 guruh magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7401014>

*Annotatsiya.* Hozirgi kunda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Chunki bizning kelajagimiz bo'lgan yosh-avlod asosiy ya'ni fundamental bilimni shubhasiz, maktabgacha ta'lim muassalarida olishni boshlaydi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassalarida dars o'tish jarayonida, qisqa muddatli guruhlarda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda yaratuvchanlik o'yinlaridan foydalanish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv, breynstorming, kichik guruhlar, didaktik o'yin, metod, aqliy hujum.

## ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ ИГР В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В КРАТКОВРЕМЕННЫХ ГРУППАХ

*Аннотация.* В настоящее время ведется эффективная работа по дальнейшему развитию сферы образования. Развитие дошкольного образования является основной целью. Потому что молодое поколение, за которым стоит наше будущее, несомненно, начнет получать базовые, т. е. фундаментальные знания в дошкольных образовательных учреждениях. Дана информация о технологии использования игр.

**Ключевые слова:** интерактив, мозговой штурм, малые группы, дидактическая игра, метод, мозговой штурм.

## TECHNOLOGY OF USING CREATIVE GAMES IN THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN SHORT-TERM GROUPS

*Abstract.* Currently, effective work is underway to further develop the education sector. The development of pre-school education is the main goal. Because the younger generation, behind which our future stands, will undoubtedly begin to receive basic, i.e. fundamental knowledge in preschool educational institutions. Information is given on the technology of using games.

**Keywords:** interactive, brainstorming, small groups, didactic game, method, brainstorming.

Bugungi kunda O'zbekiston huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyat yo'lida izchil qadamlar tashlayotganligi sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi tubdan isloh qilindi. Shaxs manfaati barcha manfaatlardan ustun qo'yildi va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish shartlaridan biridir. Ya'ni bunda ta'lim beruvchi (o'qituvchi) ham ta'lim oluvchi (o'quvchi) ham birdek faol harakatda bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham biz asosiy diqqatimizni maktabgacha ta'lim tizimiga qaratmoqchimiz. Chunki bizning kelajagimiz bo'lgan yosh-avlod asosiy ya'ni fundamental bilimni shubhasiz, maktabgacha ta'lim muassalarida olishni boshlaydi. Bizning maqsadimiz bugungi kun pedagoglari o'z faoliyatida innovatsion pedagogi texnologiyalar

asosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishidir. Lekin bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib, ham o'qituvchi ham o'quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha maktabgacha ta'lim muassalarida ham kuzatish qiyin masala. Shuning uchun biz bu mavzuni bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirdik.

Interaktiv ( inglizcha INTERACTION anglatadi ) metodlar- bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni yuqorida aytib o'tganimizdek, bir paytning o'zida ham pedagog ham o'quvchining birdek faoliyati tushuniladi. Uning asosiy mazmuni ham, tarkibi ham shundan iboratdir.

Shunday qilib, hozirgi kunda interaktiv metodlarning quyidagi turlari mavjud: 1. Aqliy hujum. Breynshtorming. 2. Jamoaviy o'qitish usuli. 3. Kichik guruhlarda ishlash. 4. O'yinli o'qitish. 5. Muloqot metodi. 6. Bumerang. 7. Tarmoqlar metodi. 8. Boshqaruv metodi va boshqalar.

Bu metodlardan aynan "Kichik guruhlarda ishlash" haqida to'xtalmoqchimiz.

Metodalar orasida aynan "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH" alohida ajralib turadi. Chunki, endi aynan o'qituvchi bir paytning o'zida turli xil 3-4 guruhda faoliyat yuritayotgan o'quvchilarni nazorat qila olishi yengillashadi. Buning sababi bolalar qanday ishlar bilan shug'ullanyapti, berilgan vazifani qay tarzda bajaryapti bari o'qituvchiga ayon. Bu metodni amalga oshirish uchun avvalo, mavzu yoritiladi. Keyin esa kichik guruhlar shakllantiriladi, har bir guruhga mavzu yuzasidan topshiriq va savollar o'rtaga tashlanadi, aniq ko'rsatma va yo'nalishlar beriladi. Topshiriqlarni bajarib bo'lgan guruhlar o'z taqdimotlarini namoyish etadilar. O'qituvchi tomonidan esa muhokama va tahlil qilinadi, dars topshiriqning qay darajada bajarilganligi inobatga olinib rag'batlantiriladilar va baholanadilar. Bu metodning afzallik tomonlari quyidagicha:

1. Bolalarning ba'ri jalb qilinadi;
2. O'zaro fikr almashish yuzaga keladi;
3. O'qitish mazmuni yaxshilanadi;
4. Vaqtning tejash imkoniyati paydo bo'ladi.

Metodning kamchilik tomonlari:

1. Guruhlarda o'zaro salbiy munosabatlar yuzaga kelish ehtimoli mavjud.
2. Guruhda kuchsiz o'quvchilarning borligi sababli kuchli o'quvchilar ham past baholanishi mumkin.

Mashg'ulotlarni kuzatish davomida bolalarning bari turlicha harakterga ega ekanligini, bir vaqtning o'zida barchaning diqqatini darsga qaratish oson emasligini angladim. Buning uchun albatta, men yuqorida sanab o'tgan metodlarning baridan foydalana olish kerak. Chunki bolalarning bari qiziqarli va samarali vaqt o'tkazishni xohlaydi. Ular juda qiziquvchan, biroz bo'sh qolishsa, albatta fikrlarini bir joyga yig'ish qiyin kechadi Mashg'ulotlar orasida turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish bolalarni dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi. Bolalarga qattiqqo'llik bilan mashg'ulotlarni olib boorish yaxshi natija bermaydi.

Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo'llaniladi. Shu xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari

mavjud: Simulativ o'yin -ta'limni hayotda bo'lib o'tgan ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularni qiyosiy tarzda tashkil etish va boshqarish metodidir.

Situativ o'yinlar ham asta-sekin maktabgacha ta'lim tajribasida o'z o'rnini topib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi.

Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi. Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

1. Laboratoriya tajribasi o'quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg'ich, sirkul va boshqalardan foydalanib qirg'ich, o'lchash kabi ishlarni bajaradilar.

2. Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash amaliy metodlarning yangi turlari hisoblanadi.

3. Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar-intellektual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo'yicha) va umumiy (masalan, barcha o'quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

## Xulosa

Yaqin yillar davomida ta'limni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Bunda o'qituvchi o'quvchiga aynan zamon talablariga xos bo'lgan bilimlarni bera olishi uchun o'zida ham ana shunday bilim bo'lishi kerak. Ayniqsa, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek maktabgacha ta'lim sohasi o'quvchilaridan boshlab o'tkaziladigan darslarning sifatini oshirishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Natija shunday bo'lishi kerakki, bugun voyaga yetayotgan yosh avlod o'z bilimlari orqali nafaqat o'z tengdoshlari balki, boshqa bir yoshlar bilan ham qay soha bo'lmasin o'z bilimidan foydalangan holda bellasha olishi kerak. Maqolaning maqsadi shundan iboratki, hozirgi kundagi o'qituvchilar (tarbiyachilar) va o'quvchilarni birgalikdagi hamkorlikda ishlashiga erishish. Ta'lim jarayonida bolalarni bilim, ko'nikma va malakalarini yanada kengaytirishga, mustahkam nazariy va amaliy bilim bilan ta'minlashga, ularni kasbiy mahoratini oshirishga, kelajakda o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olishini ta'minlashdan iboratdir. Interaktiv- "inter"-so'zidan olingan bo'lib, "o'rtasida" degan ma'noni anglatadi, ya'ni o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi ta'lim olishni shakllantirish, yanada rivojlantirish, faollashtirish deganidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalari orqali o'quvchilar yanada o'zlarining bilimlarini kengaytirib, kuchaytirib, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qobiliyatni mustahkamlashlari kerak. Shunday ekan, biz boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'z darslarida faol interaktiv metodlardan foydalangan holda o'tkazishlarini shu o'rinda o'quvchi-yoshlarni yetarli darajada ta'lim va tarbiya berishlarini istagan bo'lardik.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020 yil, 23.09
2. "Bolajon" takomillashtirish dasturi Toshkent 2016 yil
3. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent.2017 yil.
4. Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Cho'lpon" T.:2010y.
5. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012 – 100 b.
6. Jumaboev M "O'zbek bolalar adabiyoti",Toshkent "O'zbekiston" 2012 y, 21b.
7. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 4-7.
8. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
9. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
10. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
11. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
12. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.